

O'ZBEKISTONDA LOYIHALARNI JAHON BANKI TOMONIDAN MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI

Akbar Abdullaevich Jumayev

Markaziy bankning Surxondaryo viloyati

Bosh boshqarmasi boshlig'i o'rinnbosari

Annotatsiya: Maqolada jahon banking O'zbekistondagi loyihalarni moliyalashtirishdagi ishtirokini kengaytirish istiqbollari tahlil qilingan. O'zbekiston tomonidan olib borilayotgan izchil islohotlar siyosati. Shuningdek, O'zbekistonning xalqaro hamkorlikdagi ochiq siyosati, jahon banking rivojlanish kompetensiyasi, O'zbekistonda mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan izchil islohotlar siyosatining ustuvor yo'nalichlari tahlil qilingan. Davlat boshqaruvi sohasidagi islohotlarni qo'llab-quvvatlash va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, iqtisodiy infratuzilma va qishloq xo'jaligi sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha masalalar o'rganilgan. Inson kapitalini rivojlantirish va ijtimoiy himoyaga ko'maklashish bosh maqsad qilib olingan.

Kalit so'zlar: Jahon banki, iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, loyihalarni moliyalashtirish asoslari, iqtisodiy islohotlar, qishloq xo'jaligi, inson kapitali, ijtimoiy himoya.

ANALYSIS OF PROJECT FINANCING PRACTICE BY THE WORLD BANK IN UZBEKISTAN

Akbar Abdullaevich Jumaev

Deputy head of the Central Bank of Surkhandarya region

Abstract: The article analyzes the prospects of expanding the participation of the World Bank in the financing of projects in Uzbekistan. Policy of consistent reforms carried out by Uzbekistan. Also, the open policy of Uzbekistan in international cooperation, the development competence of the World Bank, the priorities of the policy of consistent reforms aimed at increasing the country's investment attractiveness in Uzbekistan were analyzed. Issues related to supporting reforms in the field of public administration and improving the business environment, financing projects in the field of economic infrastructure and agriculture were studied. Development of human capital and support for social protection are the main goals.

Key words: World Bank, expansion of economic cooperation, project financing principles, economic reforms, agriculture, human capital, social protection.

Asosiy qism. So‘nggi yillarda mamlakatimizning sarmoyaviy jozibadorligini oshirishga qaratilgan izchil islohotlar siyosati olib borilmoqda. Ushbu islohotlar samarasida mamlakatimizda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar oshib, ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib bormoqda. Bu xorijiy investitsiyalarni, jumladan, jahon banki kreditlarini jalb etish uchun qulay shart-sharoit yaratmoqda.

O‘zbekiston 1992 yildan buyon jahon bankingin a’zosi hisoblanadi. Shu vaqt ichida ikki tomon o‘rtasida umumiyligi qiymati 4,5 milliard AQSH dollaridan ortiq bo‘lgan 100 dan ortiq loyiha amalga oshirildi. O‘zbekiston o‘zining strategik rivojlanish maqsadlariga erishish uchun jahon banki bilan hamkorlikni yanada kengaytirishdan manfaatdordir.

Jahon banki yetakchi xalqaro rivojlanish tashkilotidir. Bank dunyoning turli mamlakatlarida loyihalarni amalga oshirishda katta tajribaga ega. Bu Jahon bankingin O‘zbekistonga mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishda samarali yordam ko‘rsatish imkonini beradi. Mamlakatni bugungi kunda demokratik, evalyutsion yo’ldan rivojlanishi eng samarali yo’li bo’lib, o‘zining ijobjiy natijalarini bermoqda.

Jahon banki joriy yilda O‘zbekistondagi rivojlanish siyosatini qo‘llab-quvvatlash uchun 800 mln dollar kredit ajratdi. Jahon banki O‘zbekistonda rivojlanish siyosatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha operatsiyani ma’qulladi. Operatsiya doirasida bank hukumatga maxsus imtiyozli shartlar asosida 800 million AQSh dollari miqdorida kreditlar shaklida moliyaviy yordam beradi.

Jahon bankingin dunyoning turli mamlakatlarida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan maxsus moliyaviy vositasi hisoblanadi. Operatsiya doirasida mamlakat hukumatiga ijtimoiy, iqtisodiy va iqlim o‘zgarishi sohalaridagi islohotlarning yangi bosqichini amalga oshirish uchun moliyaviy yordam ko‘rsatiladi. Mazkur islohotlardan ko‘zlangan maqsad mamlakatning bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonini jadallashtirish, fuqarolarga teng iqtisodiy imkoniyatlarni ta’minlash va milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishi uchun mustahkam zamin yaratishdan iborat.

Bankning qayd etishicha, O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tishda sezilarli yutuqlarga erishilganiga qaramay, bu jarayonni tezroq yakunlash va amaldagi iqtisodiy modelni yanada ekologik toza va adolatli modelga aylantirish zarurati mavjud. Ushbu chora-tadbirlar mamlakatga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qator maqsadlarga erishishga yordam beradi.

Jahon banki tomonidan taqdim etilayotgan moliyaviy resurslar iqtisodiyotning bir qator muhim tarmoqlarida islohotlarni qo‘llab-quvvatlash va zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan, jumladan:

1. Energetika: energetika bozorining mustaqil regulyatorini yaratish va energiya tariflarini isloh qilish. Mazkur chora-tadbirlardan maqsad tarmoq faoliyatini yaxshilash, energiya samaradorligini oshirish, energetika infratuzilmasini

modernizatsiya qilishga xususiy investitsiyalarni jalg qilish, raqobatni rag‘batlantirish va xususiy sektorning sohada keng ishtirokini ta’minlashdan iborat.

2. Temir yo‘l sohasi: yo‘lovchi va yuk tashish narxlarini shakllantirish tizimini modernizatsiya qilish, shuningdek, raqobatni rag‘batlantirish va sohaning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida temir yo‘l sohasini isloq qilish.

3. Kimyo sanoati: kimyo sanoatida institutsional islohotlarni amalga oshirish uchun zamin yaratish va yirik davlat kimyo korxonasi – “Farg‘onaazot” AJni xususiylashtirish. Ushbu choratadbirlardan maqsad sanoatni liberallashtirish, uni modernizatsiya qilishga xususiy investitsiyalarni jalg etish, kimyo sanoatida samaradorlik va raqobatni oshirishdan iborat.

4. Qishloq xo‘jaligi: Hosildorlikni oshirish va ekinlarni diversifikatsiya qilish uchun ularni ekish tartibini liberallashtirish hamda fermerlarga iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatishda yordam berish.

5. Davlatning fiskal majburiyatlarini boshqarish: O‘zbekiston Iqtisodiyot va Moliya vazirligining davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihibaridan kelib chiqadigan fiskal majburiyatlarni boshqarish va tartibga solish sohasidagi salohiyatini rivojlantirish.

6. Ijtimoiy himoya: aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, ijtimoiy xizmatlar qamrovi va turlarini kengaytirish, shuningdek, ularning sifatini oshirish maqsadida O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligini tashkil etish.

7. Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish: oiladagi (maishiy) zo‘ravonlik uchun jinoiy javobgarlikni joriy etish va ayollarni jismoniy, jinsiy, iqtisodiy va ruhiy zo‘ravonlikdan himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish.

8. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga bepul yuridik yordam ko‘rsatish: Adliya tizimidan teng foydalanishni ta’minlash maqsadida ma’muriy, fuqarolik va jinoiy ishlar bo‘yicha kam ta’minlangan shaxslarga davlat tomonidan bepul yuridik yordam ko‘rsatish.

9. Iqlim o‘zgarishiga moslashish va atrof-muhitni muhofaza qilish: keng ko‘lamli iqlim va ekologik davlat dasturlarini ishlab chiqish, O‘zbekiston Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining salohiyati va vakolatlarini kuchaytirish, shuningdek, havo sifatini nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish.

10. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish: milliy “yashil” taksonomiyani – “yashil” (ekologik toza) faoliyat va “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishga investitsiyalarni tasniflash tizimlari – ishlab chiqish. Ushbu tashabbusdan maqsad iqlim o‘zgarishiga moslashish va uning iqtisodiyot uchun oqibatlarini yumshatish maqsadida zarur choralarni ko‘rish, atmosferaga chiqindilarning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish va “yashil” loyihalarga investitsiyalarni jalg qilishdir.

Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammoli masalalar mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligiga, xususan, iqtisodiy o'sish va kambag'allikni qisqartirish, ekologik va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. SHundan kelib chiqib, ushbu yo'nalishda mamlakatda iqlim o'zgarishi ta'sirini kamaytirish va unga moslashish, «yashil» iqtisodiyotga o'tish choralarini jadallashtirish, «yashil» va inklyuziv iqtisodiy o'sish modelini targ'ib qilishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Operatsiya doirasida Jahon banki hukumatga maxsus imtiyozli shartlar asosida 800 million AQSh dollari miqdorida kreditlar shaklida moliyaviy yordam beradi. Ushbu mablag'lar hukumatga xalqaro moliya bozorlarida hozirgi kunda mavjud bo'lgan qarz olish imkoniyatlariga nisbatan pastroq foiz stavkasida va uzoqroq muddatga taqdim etiladi. Natijada O'zbekiston uchun kredit mablag'larini to'lash bilan bog'liq xarajatlar sezilarli darajada kamayadi. Bu, o'z navbatida, mamlakatga muhim moliyaviy resurslarni tejash imkonini beradi, tejalgan mablag'lardan ustuvor ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni amalga oshirish uchun foydalanish mumkin.

Jahon banki O'zbekistonning eng yirik kreditorlaridan biridir. Ikki tomon hamkorligi davomida umumiy qiymati 4,5 milliard AQSH dollaridan ortiq bo'lgan 100 dan ortiq loyiha imzolandi. Jahon banki kreditlari O'zbekiston iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasining turli sohalarida loyihalarini amalga oshirish uchun ajratilmoqda. Hamkorlikning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

Infratuzilmani rivojlantirish. Mazkur yo'nalish doirasida Jahon banki avtomobil yo'llari, temir yo'l liniyalari, aeroportlar, gidrotexnika inshootlari va boshqa infratuzilma ob'yektlarini qurish va rekonstruksiya qilish loyihalarini amalga oshirishni moliyalashtiradi.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish. Jahon banki O'zbekistonga qishloq xo'jaligini rivojlantirish, jumladan, hosildorlikni oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, irrigatsiya tizimlarini rivojlantirish va qishloq xo'jaligi texnologiyalari darajasini oshirishda yordam bermoqda.

Iqtisodiy o'sishni tezlashtirish. Jahon bankining moliyaviy yordami infratuzilma, qishloq xo'jaligi va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarini amalga oshirish uchun ishlatilishi mumkin. Bu loyihalar ishlab chiqarishni ko'paytirish, samaradorlikni oshirish va yangi ish o'rirlari yaratish imkonini beradi.

Iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish. Jahon banki O'zbekistonga yordam berishi mumkin bo'lgan boshqaruv va ishbilarmonlik muhiti islohotlari biznes yuritish uchun yanada qulay muhit yaratishga yordam beradi. Bu xorij sarmoyasini jalb qilish va iqtisodiyotda raqobatni kuchaytirishi mumkin.

Qashshoqlik va tengsizlikni kamaytirish. Inson kapitalini rivojlantirish va ijtimoiy himoyaga qaratilgan loyihalar aholi, ayniqsa, ijtimoiy himoyalanmagan guruhlarning turmush darajasini oshirishga yordam beradi. Bu jamiyatdagi

Jahon banki O‘zbekistonda ajratilgan kreditlarning maqsadli sarflanishini ijobiy baholaydi. Jahon banking hisobotida qayd etilishicha, O‘zbekiston kredit resurslaridan mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishda samarali foydalanmoqda. Jahon banki kreditlari O‘zbekistonni rivojlantirishning milliy ustuvor yo‘nalishlariga mos keladigan loyihalarni amalga oshirish uchun sarflanadi.Kredit resurslaridan shaffof va samarali foydalaniladi.Jahon banki tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar O‘zbekiston xalqiga sezilarli samaralar bermoqda.Shu bilan birga, hisobotda O‘zbekistonda ajratilgan kreditlardan maqsadli foydalanishni yaxshilash mumkin bo‘lgan sohalar ham borligi qayd etilgan. Xususan, Jahon banki o’z hisobotida quyidagilarni tavsiya qiladi:

Jahon banki 2023 va 2024-yil uchun O‘zbekiston iqtisodiy o‘sishi bo‘yicha prognozini yaxshiladi. Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi iqtisodiyoti bo‘yicha 5-oktabr kuni e’lon qilingan hisobotda O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining o‘sishi 2023-yilda 5,5 foizga yaqinlashishi (iyun oyidagi prognozga nisbatan +0,4 foiz punkt) va o‘rta muddatli istiqbolda asta-sekin tezlashib, 2024 va 2025-yillarda mos ravishda 5,6 va 5,8 foizga yetishi mumkinligi aytilgan (+0,2 foiz punkt).

2023-yilda iste’mol darajasi o‘sishi sekinlashadi, bu Rossiyadan pul o‘tkazmalari hajmining pasayishi bilan bog‘liq.2023-yilda import o‘sishi tezlashishi kutilmoqda. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sur’atlarini saqlab qolish uchun uning hajmi o‘rta muddatli istiqbolda o‘sishda davom etadi.

Xulosa. Jahon banki va O‘zbekiston o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va aholi turmush darajasini oshirishga salmoqli hissa qo‘sishi mumkin. Xususan, hamkorlik quyidagilarga yordam beradi: Iqtisodiy o’sishni tezlashtirish va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish. qashshoqlik va tengsizlikni kamaytirish, aholining turmush sifatini oshirish va boshqalar.

Ikki tomon hamkorligini kengaytirish uchun quyidagilar zarur.O’rta va uzoq muddatli hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlarini kelishib olish.O‘zbekistonning tegishli vazirlik va idoralari hamda Jahon banki o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqish. Mazkur takliflarning hayotga tatbiq etilishi Jahon banki va O‘zbekiston o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirish uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

Iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish. Jahon banki O‘zbekistonga yordam berishi mumkin bo‘lgan boshqaruv va ishbilarmonlik muhiti islohotlari biznes yuritish uchun yanada qulay muhit yaratishga yordam beradi. Bu xorij sarmoyasini jalb qilish va iqtisodiyotda raqobatni kuchaytirishi mumkin.

Qashshoqlik va tengsizlikni kamaytirish. Inson kapitalini rivojlantirish va ijtimoiy himoyaga qaratilgan loyihalar aholi, ayniqsa, ijtimoiy himoyalanmagan guruhlarning turmush darajasini oshirishga yordam beradi. Bu jamiyatdagi qashshoqlik va tengsizlikni kamaytirishga yordam beradi.

Jahon bankining O'zbekistonda loyihalarni moliyalashtirishdagi ishtirokini kengaytirishga ta'sir etuvchi omillar tahlil qiish harakat qilindi Bu omillarga quyidagilar kiradi:

O'zbekistonning siyosiy barqarorligi va islohotlarga tayyorligi. Ijobiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar. Iqtisodiy o'sish istiqbollar. Malakali kadrlar mavjudligi. Infratuzilmani rivojlantirish. Jahon bankining O'zbekistondagi loyihalarni moliyalashtirishdagi ishtirokini kengaytirish istiqbollarini va hamkorlikning mumkin bo'lgan yo'nalishlari, shuningdek kutilayotgan natijalar ko'rib chiqilishi harakat qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O'zbekiston, 2012. – 40b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. // Xalq so'zi, 24.01.2020 yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2030 yilgacha "O'zbekiston respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida qarori, 02.12.2022 yildagi PQ-436-son.
4. Jahon banki. O'zbekistonga sharh. 2023 yil
5. Jahon banki. Jahon banki guruhi-O'zbekiston hamkorligi: O'zbekistondagi dastur haqida qisqacha ma'lumot. 2015 yil aprel
6. Jahon banki. Hamkorlik strategiyasi: O'zbekiston. 2022
7. Abdullaev, B. R. va Hakimov, A. A. (2022). Islohotlar dasturini amalga oshirish sharoitida O'zbekiston va Jahon banki o'rtaqidagi hamkorlik istiqbollar. TDYU Axborotnomasi, 2(5), 103-109.
8. Mirzaev, A. A. (2023). O'zbekiston va Jahon banki o'rtaqidagi kichik va o'rta biznesni rivojlantirish borasidagi hamkorlik. O'zbekiston iqtisodiy jurnali, 52-57.
9. Usmonova, N. N. (2022). O'zbekistonning Jahon banki bilan inson kapitalini rivojlantirish sohasidagi hamkorligi. TDYU Axborotnomasi.